Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK:7.78:781.2
ORCID:0009-0000-2473-0866

MUSIQA TARIXI SHAKLLANISHINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

Zakirova Zilola Azamovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Musiqa mahorati va madaniyati
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Madaniy va ma'naviy hayotda musiqaga oid ilk qo'shiqlar, ularning ijrochilari, sozandlar, musiqa ustachilik maktablari manbalaridan foydalanish, musiqa madaniyatini rivojlantirish va musiqa san'atiga oid eng qadimgi musiqa asbob-uskunalari, ularning qanday xom ashyolardan tayyorlanganligi, ularni ijro etish usullari, musiqani o'zlashtirish va o'rgatish madaniyatini takomillashtirish kabi ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari musiqa narixini shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan xizmat qiladi.

1. Tadqiqot maqsadi. Xalqning madaniy va ma'naviy hayotida musiqaga oid manbalardan foydalanish doirasida xalqimizga, jumladan, yoshlarga musiqaga oid manbalardan o'rinli foydalanish madaniyatini takomillashtirish tizimini ochib berishdan iborat.

2. Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xronologiklik, izchillik, qiyosiy tahlil, muammoli hududiy yondashuv, tizimlashtirish, statistik tahlil va og'zaki tarixiy bayon usullaridan foydalainldi.

3. Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jahon musiqa san'ati namoyandalarining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga qo'yiladigan ma'naviy milliy g'oyalarni yoritib berish; musiqa san'ati tarixi shakllanish sharoitlarining nazariy va amaliy asoslarini yoritib berish; o'zbek milliy musiqa san'atining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarini tahliliy yoritish; yordam beradi.

4. Xulosalar. Xalq madaniy va ma'naviy hayotida musiqaga oid manbalardan foydalanish va bilim doirasiga oid madaniyatini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: milliy musiqa, sozandalar, xonandalar,cholg'u asboblari, musiqa ustachilik maktablari, tarixiy o'lkashunoslik, muzeyshunoslik, falklor-etnografik, Zarautsoy, Ayritom.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИИ МУЗЫКИ

Аннотация. Вносятся научные предложения по использованию в культурно-духовной жизни сведений о древнейших песнях, связанных с музыкой, их исполнителях, инструментах, истоках школ музыкального мастерства, о развитии музыкальной культуры и древнейших музыкальных инструментах, связанных с музыкальным искусством, сырье, из которого они изготавливались, способах исполнения на них, а также по повышению культуры освоения и преподавания музыки. Результаты исследования служат как теоретическим, так и практическим целям формирования музыкальной индустрии.

1.Цель исследования. В рамках использования музыкальных ресурсов в культурной и духовной жизни народа раскрыть нашему народу, в том числе молодежи, систему повышения культуры целевого использования музыкальных ресурсов.

2.Методы исследования. В процессе исследования использовались методы историчности, хронологии, системности, сравнительного анализа, проблемного подхода, систематизации, статистического анализа и устного исторического повествования.

3.Результаты исследования. По результатам исследования становится возможным пролить свет на духовные и национальные идеи, заложенные в изучении жизни и творчества деятелей мировой музыки; осветить теоретические и практические основы условий формирования истории музыкального искусства; аналитическое освещение этапов становления и развития узбекского национального музыкального искусства; помогает.

4.Выводы. Разработаны предложения и рекомендации по использованию музыкальных ресурсов в культурной и духовной жизни народа, использованию инновационных технологий для повышения культуры его знаний.

Ключевые слова: национальная музыка, музыканты, певцы, музыкальные инструменты, школы музыкального мастерства, историческое краеведение, музееведение, фольклор и этнография, Зараутсой, Айритом.

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR SHAPING THE HISTORY OF MUSIC

Annotation. This article presents scientific proposals for incorporating knowledge about the most ancient songs related to music, their performers, instruments, the origins of musical mastery schools, the development of musical culture, and early musical instruments into the cultural and spiritual life of society. It also discusses the materials used to make these instruments, the methods of playing them, and strategies for improving the culture of learning and teaching music. The research findings serve both theoretical and practical purposes in shaping the music industry.

1. Research purpose. Within the framework of utilizing musical resources in the cultural and spiritual life of the people, the study aims to introduce to the public, especially the youth, a system for enhancing the culture of purposeful use of musical resources.

2. Research methods. The research employs methods such as historicism, chronology, system analysis, comparative analysis, problem-based approach, systematization, statistical analysis, and oral historical narrative.

3. Research results. The findings make it possible to shed light on the spiritual and national ideas embedded in the study of the lives and creative works of world-renowned musicians; to highlight the theoretical and practical foundations of the conditions for forming the history of musical art; to provide analytical insights into the stages of formation and development of Uzbek national musical art.

4. Conclusions. Proposals and recommendations have been developed for the use of musical resources in the cultural and spiritual life of the people, including the application of innovative technologies to enhance the culture of musical knowledge.

Keywords: national music, musicians, singers, musical instruments, schools of musical mastery, historical local studies, museum studies, folklore and ethnography, Zarautsoy, Ayritom.

KIRISH. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida musiqa san'ati yuksak qadrlanib, uning vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik kabi g'oyalarni targ'ib etishdagi roli keng o'rganilmoqda. Musiqa sohasini yanada

rivojlantirish maqsadida YUNESKOning Madaniyat ishlari boshqarmasi tomonidan xalqaro musiqa festivallari tashkil etilib, ijrochilik san'ati va yangi musiqa asboblarini yaratish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Koreya va Yaponiya kabi ilg'or mamlakatlarning ilmiy tadqiqot markazlari madaniy-ma'naviy hayotda musiqa san'atining o'rnini, turli musiqa yo'nalishlarining rivojlanish tajribalarini tahlil qilish bilan shug'ullanmoqda. Ushbu tadqiqotlarning ijobiy natijalari xalqaro musiqa anjumanlarida taqdim etilmoqda. Musiqa san'atining jahon andozalariga muvofiq ravishda rivojlanishini ta'minlash maqsadida BMTning YUNESKO va UNFPA kabi tashkilotlari tomonidan "Ming yillik rivojlanish maqsadlari" dasturi doirasida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, "WHA57.12" qarorida zamonaviy musiqa san'atini kengroq qo'llashga imkon beruvchi mexanizmlarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida milliy musiqa merosidan samarali foydalanish, uning tarixini o'rganish, yetuk san'atkorlar ijodini tadqiq qilish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat yoshlar ongiga jiddiy ta'sir o'tkazayotgan bir davrda, milliy musiqa san'ati unga qarshi turadigan kuchli vosita sifatida ko'rilmoqda. Shu sababli, xalqaro miqyosda rivojlanish va erishilgan yutuqlarni jadallashtirish maqsadida maxsus loyihalarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda. Musiqa san'ati esa faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki tarixiy voqealar, jamiyatdagi muammolar, yutuqlar va qahramonliklarni ifodalovchi san'at turi sifatida ham yosh avlod ongiga singdirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan milliy musiqa san'atini rivojlantirishga oid qator muhim hujjatlar qabul qilingan. 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-5538-sonli va PQ-3931-sonli qarorlar, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli qaror, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli farmon bu borada muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar milliy musiqa tizimini takomillashtirish va zamonaviy tamoyillarni joriy etishga yo'naltirilgan bo'lib, madaniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash va yoshlar tarbiyasida musiqa san'atining o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbekistonning madaniy va ma'naviy hayotida musiqa san'ati alohida o'rin tutib, uning tarixiy ahamiyati chuqur o'rganilgan. Xususan, Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taniqli olimlar R. Axlidinov, M. Vahobov, R. Jo'rayev, U. Inoyatov, R. Karimov, X. Rashidov, C. Turg'unov, K. Shodmonov, Sh. Qurbonov, M. Davletshin, O. Jamoliddinova, A. Isimova, S. Yo'ldosheva, I. Machanov, O. Musurmanova, K. Risqulova, T. Saparov, D. Xoliqov va D. Sharipovalar madaniy-ma'naviy hayotda musiqa san'atining manbalaridan foydalanish, musiqa madaniyatini shakllantirish va yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'usini oshirish masalalarini o'rganib kelganlar.

Musiqa san'ati orqali vatanparvarlik, insonparvarlik, jasorat va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirish bo'yicha xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy maqolalar, shuningdek, musiqa sohasidagi mahalliy tadqiqotlar qimmatli manba sifatida e'tirof etiladi. Bu borada X. Xaliyarov, D. Bichkov va A. Blinnikovning kitoblari musiqa san'ati bo'yicha muhim materiallarni taqdim etgan. Shuningdek, mahalliy musiqa manbalarini o'rganish va taqdim etishda M. A. Belyayeva, L. I. Stolyarchuk, A. D. Karabasheva hamda T. V. Kamenskaya singari olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning madaniy-ma'naviy hayotida musiqa san'ati manbalaridan

foydalanish va ularni o‘rganish bo‘yicha qator izlanishlar olib borilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab olimlar tadqiqot yuritgan. Xususan, Surxondaryo viloyati misolida musiqa san’atining jamiyatga ta’siri va uning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar nafaqat madaniy merosni asrab-avaylash, balki uni zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Xalqning madaniy va ma’naviy hayotida musiqa tarixi hamda unga oid manbalardan foydalanish ilmiy-metodik asoslar bilan mustahkamlangan bo‘lib, mavjud nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalarga tayanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan hamda tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda madaniy va ma’naviy hayotda musiqaga oid ma’lumotlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqilgan. Bu model xalqaro va milliy tajriba asosida ilmiy-nazariy jihatdan boyitilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalarida “Tarix va mintaqalari bo‘yicha” bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan “O‘zbekiston tarixi”, “Etnografiya”, “Tarixiy o‘lkashunoslik” va “Muzeyshunoslik” fanlarining mazmunini boyitishda ko‘rinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va dasturiy-metodik mahsulotlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Madaniy va ma’naviy hayotda musiqaga oid manbalardan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Musiqaga oid qadimiy qo‘shiqlar, ularning ijrochilari, sozandalar hamda musiqa ustachilik maktablari haqidagi manbalar o‘rganildi. Shuningdek, musiqa madaniyatining rivojlanish bosqichlari, musiqa san’atiga oid eng qadimgi musiqa asboblari, ularning qanday materiallardan tayyorlanganligi va ijro usullari bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Bularning barchasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 16-dekabrdagi 03-12-08-5402-sonli ma’lumotnomasida o‘z aksini topgan. Natijada, ta’lim muassasalari o‘rtasida musiqa materiallaridan samarali foydalanish va ularni dars jarayonlariga tatbiq etishning yangi usullari ishlab chiqildi.

Musiqaga oid manbalardan foydalanish milliy va xorijiy tajribalar bilan uyg‘un ravishda rivojlantirilib, musiqa maktablari, sulolalari, musiqiy asarlarning shakllanish jarayoni va asrlar davomida kuylanib kelayotgan qo‘shiqlarning ijro an’analari chuqur o‘rganildi. Mashhur sozandalar va ularning milliy madaniyatga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotlar to‘plandi. Ushbu natijalar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2022-yil 21-dekabrdagi 398-sonli ma’lumotnoma orqali tasdiqlangan. Mazkur tadqiqot musiqaga oid tarixiy ashyolar, musiqa asboblari, ularning yaratilish usullari, shuningdek, jang, g‘alaba, mehnat, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, sport, to‘y va marosimlarda ijro etilgan musiqiy chiqishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qildi.

O‘zbekistonning madaniy va ma’naviy hayotida musiqa bilan bog‘liq ilk manbalar sifatida Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Rim va O‘rta Osiyo hududidagi qadimiy jahon musiqasi haqida ilmiy tahlillar olib borildi. Musiqa san’atining Surxondaryo viloyati hududida paydo bo‘lishi bo‘yicha arxeologik, etnografik va tarixiy manbalar o‘rganildi. Ayniqsa, Zarautsoy, Ayritom, To‘polondaryo havzasi, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi yodgorliklardan topilgan ud, friz, arfa, daf, doira singari qadimiy musiqa asboblari va ular

bilan bog‘liq ilmiy-tarixiy ma’lumotlar “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” dasturida yoritildi. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 27-dekabrdagi №-02-31-2146-sonli rasmiy hujjati bilan tasdiqlangan. Bu esa yosh avlod ongiga madaniy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga xizmat qildi.

XULOSA. Musiqa san’ati insoniyat ongli ravishda borliqni anglay boshlagan ilk davrlardan boshlab muhim ehtiyoj sifatida shakllangan. Dastlab u ijtimoiy-ma’naviy zarurat sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik ibtidoiy jamoalarning rivojlanishi bilan bog‘liq holda takomillashib borgan. Ushbu tadqiqotning birinchi bobida musiqa san’atining paydo bo‘lishi, uning turli davrlardagi rivojlanish bosqichlari va mazkur jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan omillar tahlil qilindi. Jumladan:

1. Musiqa san’atining shakllanishi har bir qabila, urug‘, millat va elatlarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari, yashash tarzi, qadriyatlari hamda davrga xos yetakchi g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq ekani ilmiy asosda o‘rganildi.

2. Musiqa san’atining paydo bo‘lish tarixi xalq og‘zaki ijodining ilk namunalari bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi musiqa san’atining boshlang‘ich negizi ekanligi soha mutaxassislarining fikrlari va manbalar tahlili asosida isbotlandi.

3. Musiqa san’ati boshqa san’at turlari bilan uyg‘un rivojlanishi lozimligi, bu jarayonda turli janrlarning o‘zaro hamohangligi va bir-birini to‘ldirish xususiyati muhim ekani asoslab berildi.

4. Xalq og‘zaki ijodi namunalari barhayotligini ta’minlovchi omillar chuqur tahlil qilindi. Jumladan, musiqa san’ati tanlovlari va festivallarini muntazam o‘tkazish, musiqa ta’lim muassasalarini rivojlantirish hamda musiqa san’ati tarixi va zamonaviy muammolariga bag‘ishlangan izchil va samarali tadqiqotlar olib borish zaruriyati ko‘rsatib berildi.

5. Musiqa san’atining shakllanishi insonning tabiat va jamiyat rivojlanishiga qo‘shgan aqliy-mehnat natijasi sifatida talqin etildi. Shu bois, qadimiy madaniy markazlarning faoliyati ilmiy tahlil qilinib, musiqa san’atining nazariy va amaliy taraqqiyoti bo‘yicha dastlabki manbalar, tarixiy-badiiy asarlar hamda ularning mualliflari amalga oshirgan ishlar o‘rganildi. Musiqa san’atining jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi hamda Surxondaryo vohasida erishilgan dastlabki yutuqlar xolisona ilmiy bayon qilindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev U. Etnologiyada terminologiya muammosi O‘zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar. Toshkent: 2004. – B. 10-

2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri (Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr). Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 380 b.

3. Akramov G‘. Mifologiyaning ayrim epik janrlari bilan o‘zaro munosabati O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981.B. 157.

4. Azizxo‘jayeva N. Musiqiy-pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2004.-B.156.

5. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – 222 b.

6. As-Safsafiy Ahmad al-Qatoriy // «Alpomish» dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti» mavzuidagi xalqaro konferentsiya materiallari.Toshkent: Fan, 1999. – B. 21-24.

7. Ashirov A. O‘zbek xalqining e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. 274.

8. Beknazarov J. Qamay dostoni. – Toshkent: Yozuvchi, 2000. – 72 b.
9. Bo‘riyev O. Janubiy O‘zbekiston qishloq jamoasida paykal tizimi (XIX asrning oxiri-XX asr boshlari) // Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti. Boysun bahori ochiq folklor festivali materiallari. – Boysun. 2002. B. 15.
10. Bo‘riyev O., Xo‘jamberdiyev T. Qo‘ychilik udumlari // O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari. Qarshi, 2005. B. 40-50.
11. Bo‘riyev O., Xo‘jamberdiyev T. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi, 2005. – 216 b.
12. Bo‘riyev O., A. Ochilov. Qashqadaryo vohasi etnomadaniy qadriyatlari – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 364 b.